

| EMITENTNING NOMI | | | | | | |
|---|--|---|---------------|------|-------------------|------|
| 1. | To‘liq: | | | | | |
| | Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki | | | | | |
| | Qisqartirilgan: | | | | | |
| | «Hamkorbank» ATB | | | | | |
| | Birja tikerining nomi:* | | | | | |
| | HMKB | | | | | |
| ALOQA MA’LUMOTLARI | | | | | | |
| 2. | Joylashgan eri: | | | | | |
| | Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 85-uy | | | | | |
| | Pochta manzili: | | | | | |
| | 170119, Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 85-uy | | | | | |
| | Elektron pochta manzili:* | | | | | |
| | muloqot@hamkorbank.uz | | | | | |
| | Rasmiy veb-sayti:* | | | | | |
| | www.hamkorbank.uz | | | | | |
| MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT | | | | | | |
| | Muhim faktning raqami: | | | | | |
| | 06 | | | | | |
| | Muhim faktning nomi: | | | | | |
| | Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shu jumladan aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar kuzatuv kengashining qarorlari. | | | | | |
| | Umumi yig‘ilish turi: | | | | | |
| | Kuzatuv kengashi yig‘ilish | | | | | |
| | Yig‘ilish o‘tkazish sanasi: | | | | | |
| | 01.03.2024 | | | | | |
| | Yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sana: | | | | | |
| | 01.03.2024 | | | | | |
| | Yig‘ilish o‘tkazilgan joy: | | | | | |
| | Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 85-uy | | | | | |
| | Yig‘ilish kvorumi: | | | | | |
| | 100,0% | | | | | |
| Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar | Ovoz berish yakunlari | | | | | |
| | yoqlash | | qarshi | | betaraflar | |
| 3. | % | soni | % | soni | % | soni |
| | 100,0 | 9 | 0 | - | 0 | - |
| | 100,0 | 9 | 0 | - | 0 | - |
| Umumi yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni: | | | | | | |
| 1. | 1. Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat bankining korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish. 2. Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat bankining korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish to‘g‘risidagi qaror hamda emissiya risolasini tasdiqlash. | 1. Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat bankining resurs bazasini oshirish maqsadida korporativ obligatsiyalarning ikkinchi chiqariluvini muomalaga chiqarilishiga ruxsat berilsin. 2. Obligatsiyalarni muomalaga chiqarish miqdori, shartlari, muddatlari va obligatsiyalar bo‘yicha daromadni belgilash tartibi quyidagicha belgilansin: ➢ chiqarilishdagi obligatsiyalarning miqdorini bankning o‘z kapitali miqdori doirasida belgilash uchun egasining nomi yozilgan diskontlik, hujjatsiz shaklda, 50 000 (ellik ming) dona, nominal qiymati 1 000 000 (bir million) so‘mdan bo‘lgan, umumi y summasi 50 000 000 000 (ellik milliard) so‘m deb belgilansin; ➢ obligatsiyaning daromadi nominal qiymati bo‘yicha belgilangan muddatda so‘ndirish hisobiga amalga oshirish, bunda daromad sotish bahosi va obligatsiyaning nominal qiymati o‘rtasidagi farq hisobiga, ya’ni diskont orqali har bir obligatsiyani joylashtirishni boshlash sanasida 819 672,13 (sakkiz yuz o’n to‘qqiz ming olti yuz yetmish ikki so‘m 13 tiyin) so‘mdan boshlab joylashtirilsin hamda keyingi har bir joylashtirish bahosi - boshlang‘ich bahosiga kunlik diskont qiymati qo‘shilgan narx bo‘yicha joylashtirilsin; ➢ mazkur chiqarilishdagi korporativ obligatsiyalar soni cheklanmagan investorlar o‘rtasida ommaviy usulda (ochiq obuna yo‘li bilan) joylashtirushi amalga oshirilsin; ➢ obligatsiyalarni joylashtirish muddati – mazkur chiqarilishdagi obligatsiyalar qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatlari davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab bir yil davomida joylashtirushi amalga oshirilsin; ➢ obligatsiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – obligatsiyalarning chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi xabar ommaviy axborot vositalariga e’lon qilingan sanadan boshlab 15 (o’n | | | | |

| | |
|--|--|
| | <p>beshinchi) kundan hisoblansin. Agar obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi bank hisob-kitob operatsiyalari uchun dam olish kuniga to'g'ri kelsa, bu holda obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi ushbu kundardan keyingi birinchi ish kuniga ko'chirilsin;</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ obligatsiyalarning joylashtirishning tugash sanasi – mazkur chiqarilishning so'nggi obligatsiya joylashtirilgan kun. Biroq obligatsiyalarni joylashtirishni yakunlanish sanasi, mazkur chiqarilish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab bir yildan oshmasligi lozim; ➤ ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar uchun to'lovlar qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdo tashkilotchisi qoidalariga muvofiq tuziladigan bitimlar asosida naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida amalga oshirish. Obligatsiyalar bo'yicha pulsiz vositalar bilan to'lovlar amalga oshirilmasin; ➤ obligatsiyalarning muomala muddatini – obligatsiyalar joylashtirilishi boshlangan sanadan boshlab 365 (uch yuz oltmis besh) kun qilib belgilash. Mazkur muddat yakuni bo'yicha obligatsiyalar uchun to'lov sifatida olingan pul mablag'larni, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan diskont ko'rinishidagi daromadlarni to'lash amalga oshirilsin; ➤ ushbu obligatsiyalarning muomala muddati yakunlangan sanasi bo'yicha har bir obligatsiya egasiga sotish bahosi va obligatsyaning nominal qiymati o'rtasidagi farq hisobiga daromad belgilansin; ➤ obligatsiyalar bo'yicha diskont ko'rinishdagi daromadlar bank tomonidan tegishli davrning oxirgi sanasida tuzilgan obligatsiyalar egalari reestrida ro'yxatdan o'tgan obligatsiya egasiga to'lab berilsin, bunda: <ul style="list-style-type: none"> • bitta obligatsiyani diskont orqali joylashtirish quyidagi formula bo'yicha aniqlansin: $N / (1 + P) = Dn$, bunda: <p>Dn – obligatsiyani joylashtirish narxi; N – obligatsyaning nominal qiymati – 1 000 000 so'm; 1 – obligatsiyani muomalada bo'lish yili – 1 yil; P – diskont orqali joylashtirishdagi yillik foiz stavkasi – 22 %. $1 000 000 / (1+22\%) = 819 672,13$ so'm.</p> <p><i>**Izoh: Joylashtiriladigan obligatsiya summasi bir tiyinga qadar aniqlik bilan belgilanadi.</i></p> • bir obligatsiyaga kunlik diskont ko'rinishdagi daromadlarini hisoblash quyidagi formula bo'yicha aniqlansin: $Dn * (P / 365) * Y = X$, bunda: <p>X – joylashtirilgan obligatsiya bo'yicha daromadi; Dn – obligatsiyani joylashtirish narxi - 819 672,13 so'm; P – diskont orqali joylashtirishdagi yillik foiz stavkasi – 22 %. 365 – obligatsiyani muomalada bo'lish kuni – 365 kun; Y – obligatsyaning turgan bir kunligi – 1 kun; $819 672,13 * (22\% / 365) * 1 = 494,05$ so'm.</p> <p><i>**Izoh: diskont ko'rinishdagi daromad miqdori bir tiyinga qadar aniqlik bilan belgilanadi.</i></p> <p>3. Obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish ehtimoli va shartlarini belgilash tartibi quyidagicha belgilansin:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ obligatsiyalarni so'ndirish sanasi, joylashtirishni boshlanish sanasidan boshlab 366 (uch yuz oltinchi) kunga o'tgan kun deb hisoblansin; ➤ obligatsiyalarini muddatidan oldin so'ndirish, obligatsiyalar joylashtirilgan sanadan boshlab 365 (uch yuz oltmis besh) kundan ilgari so'ndirishni amalga oshirish mumkin emas deb belgilash, bunda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi, obligatsiyalarni joylashtirish muddatlarida joylashtirilmasligi, bank o'z kapitali miqdori kamaytirilganda va/yoki bank qayta tashkil etilgan va tugatilish hollari bundan mustasno deb belgilansin; ➤ bank obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida vaziyatlar yuzaga kelganda, bank Kuzatuv kengashiga bank qonunchilikda va mazkur bo'liming birinchi xat boshisida ko'zda tutilgan holatlari yuzaga kelganda obligatsiyalarni muddatidan oldin qaytarib sotib olish to'g'risida tegishli qaror qabul qilish vakolatini berilsin; ➤ mazkur obligatsiya egalarining obligatsiyalarini muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida vaziyatlar yuzaga kelganda, muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitarisyiga ushbu obligatsiyalarni harakatsizlantirish hamda obligatsiyalarni harakatsizlantirish sanasiga obligatsiya egalari reestrini tuzish bo'yicha topshiriqnomaga berilsin; ➤ bank obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida obligatsiya egalarini 10 (o'n) kun oldin yozma shaklda obligatsiya egalarining reestrda aks ettirilgan ma'lumotlari (manzillari) bo'yicha |
|--|--|

- xabardor qilinsin;
- bank obligatsiya egalariga obligatsiyaning dastlabki joylashtirish qiymati hamda ushbu obligatsiya bo'yicha hisoblangan diskont ko'rinishidagi daromadlarini bank Kuzatuv kengashi qaror qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariydan olingan obligatsiya egalari reestrida ko'rsatilgan bank rekvizitiga o'tkazib berishni amalga oshirilsin;
 - bank obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha bankning Kuzatuv kengashi qarori qabul qilingan kunidan boshlab, mazkur obligatsiyalarga to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun qo'shimcha to'lovlarni yetkazilsin;
 - obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan shartlar yuzaga kelgan kundan 2 (ikki) ish kuni ichida O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portalı (www.openinfo.uz), bankning rasmiy veb-sayti (www.hamkorbank.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) ushbu fakt to'g'risida rasmiy xabarni e'lon qilib, ma'lumotlarni obligatsiya egalariga yetkazilsin;
 - bank tomonidan ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni muomala muddati davomida birja va birjadan tashqari savdolarida qayta sotish maqsadida sotib olishi va boshqa investorlarga sotishi mumkinligini belgilansin.
4. Obligatsiyalarni chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda bank tomonidan obligatsiyalar uchun to'langan mablag'larning qaytarish tartibi quyidagicha belgilansin:
- obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Biznes Daily "Birja" gazetasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portalı (www.openinfo.uz), bankning rasmiy veb-sayti (www.hamkorbank.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) belgilangan tartibda oshkor qilinsin;
 - obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida obligatsiyalar egalarining reestri asosida, obligatsiyalar uchun to'langan mablag'lar va yig'ilgan diskont to'lovlarini qonunchilikda belgilangan tartibda investorlarga qaytarilsin;
 - obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan paytdan e'tiboran bank ushbu qaror asosida chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha diskont ko'rinishidagi daromadlarni hisoblash to'xtatilsin;
 - bank tomonidan obligatsiya egalariga obligatsiyalarning chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilganidan so'ng, to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun diskont ko'rinishidagi daromadlarni to'lanmasin.
5. Bank tomonidan obligatsiya egalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishuvchi to'lov agenti quyidagicha belgilansin:
- Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni naqd pulda to'lanishi ko'zda tutilmaganligi sababli to'lov agenti jalb etilmaydi.
6. Obligatsiyalarni joylashtirish jarayoni bo'yicha anderrayerter (anderrayerterlar guruhi) tanlash hamda tegishli axborotlarni qonun hujjalari belgilangan tartib va muddatlarda ommaviy axborot vositalarida oshkor qilish quyidagicha belgilansin:
- obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan anderrayerter xizmatlarini ko'rsatuvchi "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati investitsiya vositachisini jalb qilgan holda amalga oshirilsin;
 - bank Boshqaruv raisiga "HBCapital" MCHJ o'rtasida anderrayerterlik shartnomasini rasmiy lashtirish vazifasi yuklatilsin;
 - obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha axborotlarni qonun hujjalari belgilangan tartib va muddatlarda ommaviy axborot vositalarida oshkor qilish va investorlarni emissiya hujjalari bilan tanishtirish quyidagicha amalga oshirilsin:
 - obligatsiyalarni chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot qonun hujjalari belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portalı (www.openinfo.uz), bankning rasmiy veb-sayti (www.hamkorbank.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) oshkor qilinsin;
 - obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorning asl nusxalari bilan bankning ma'muriy binosida, haftaning ish kunlari soat 9⁰⁰ dan 18⁰⁰ gacha bo'lgan vaqt davomida tanishtirilsin.

| | | |
|----|--|---|
| | | <ol style="list-style-type: none"> 1. Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat bankining obligatsiyalar chiqarilishi to’g’risidagi qaror 1-ilovaga muvofiq tasdiqlasini. 2. Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat bankining obligatsiyalar chiqarilishi to’g’risidagi emissiya risolasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlasini. 3. Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat banki obligatsiyalar chiqarilishi to’g’risidagi qaror va emissiya risolasini yuqori qismini imzo bilan tasdiqlash vakolati bank Boshqaruv raisi Jo’rayev Baxtiyorjon Tuymuratovichga berilsin. 4. Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat banki obligatsiyalar chiqarilishi to’g’risidagi qaror va emissiya risolasini davlat ro’yxatidan o’tkazish uchun topshirish vazifasini bank Boshqaruv raisi zimmasiga yuklatilsin. |
| 2. | | |

Ijroiya organi rahbari

Jo'rayev Baxtiyorjon Tuymuratovich:

Bosh buxgalter

Irgashev Nodirbek Rustamovich:

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxs

Sharobidinov Muxammadbobir Mo'minjon o'g'li: